

“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MCHJ
Ta’sischisi
O‘zbekiston Respublikasi
Transport vazirligining
2023-yil 18 iyulda 1-sonli
Qaroriga 1-ilova

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI
HUZURIDAGI
TRANSPORT ILMIY-TADQIQOT MARKAZI
MA’SULIYATI ChEKLANGAN JAMIYATNING
USTAVI**

Toshkent - 2023

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (keying o‘rinlarda –“Jamiyat) mazkur Ustavi O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi, “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi “Ma’muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 94-son Farmoni va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Jamiyatning muassisi – O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi.

1.3. Jamiyatning to‘liq firma nomi:

Davlat tilida: “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyat;

Rus tilida: Общество с ограниченной ответственностью “Научно-исследовательский центр транспорта”;

Ingliz tilida: “Transportation research center” Limited liability company.

Jamiyatning qisqartirilgan nomi:

Davlat tilida: “TITM” MChJ

Rus tilida: ООО “НИЦТ”;

Ingliz tilida: “TRC” LLC

1.4. Jamiyatning pochta manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100128 Toshkent sh., Shayhontoxur tumani, Zulfiyaxonim ko‘cha, 3-uy.

1.5. Jamiyat cheklanmagan muddatga tashkil etiladi.

II. JAMIYATNING YURIDIK MAQOMI

2.1. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga asosan yuridik shaxs hisoblanadi. Jamiyat belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

2.2. Jamiyat o‘z faoliyatini mazkur ustav va O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq va ta’sis hujjatlariga asosan amalga oshiradi.

2.3. Jamiyat o‘z majburiyatlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi. Jamiyatning yagona ishtirokchisi uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi va Jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zi qo‘sigan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladi.

2.4. Jamiyat o‘zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, shuningdek, belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan o‘z logotipiga, tovar belgisiga ega bo‘lishga haqli.

2.5. Jamiyat o‘z egaligida mustaqil balansda hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega, o‘z nomidan huquqlar va majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

III. JAMIYATNING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

3.1. Jamiyat muassisining ruxsati bilan O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq vakolatxonalar, filiallar va boshqa alohida bo‘linmalar tuzishga haqli.

IV. JAMIYATNI TASHKIL ETISHDAN MAQSAD VA FAOLIYAT TURLARI

4.1. Jamiyatni tashkil etishdan asosiy maqsad transport sohasida texnik jixatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinov, loyihalash va ekspertiza ishlarini o‘tkazish, standartlash, sertifikatlashtirish va transport tizimini modellashtirish ishlarini amalga oshirish va boshqa tijorat xizmatlarini ko‘rsatish orqali foyda olishdan iborat.

Jamiyat faoliyatining predmeti bo‘lib transport sohasida texnik jixatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinov, loyihalash va ekspertiza ishlarini o‘tkazish, standartlash, sertifikatlashtirish va transport tizimini modellashtirish ishlarini amalga oshirish va boshqa tijorat xizmatlarini ko‘rsatish hisoblanadi va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa har qanday faoliyat turlaridan iborat.

4.2. Amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadigan faoliyat tegishli ruxsatnoma (litsenziya) olingandan keyin amalga oshiriladi.

V. JAMIYATNING MOL-MULKI VA MABLAG’LARI

5.1. Jamiyat mustaqil ravishda o‘ziga tegishli mol-mulkdan foydalanadi.

5.2. Jamiyatning mol-mulki:

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining ulushidan;

Jamiyat faoliyati natijasida olingan foydadan;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan shakllantiriladi.

VI. JAMIYATNING USTAV FONDI

6.1. Jamiyat ustav fondi “76 120 927” (yetmish olti million bir yuz yigirma ming to‘qqiz yuz yigirma yetti) so‘m:

“O‘zavtotrannexnika” ilmiy-ishlab chiqarish markazining ustav fondi bo‘lgan mol-mulk – 74 348 535,1 (yetmish to‘rt million uch yuz qirq sakkis ming besh yuz o‘ttiz besh so‘m o‘n tiyin) so‘m

pul mablag’lari ko‘rinishida – 1 772 391,9 (bir million yeti yuz yetmish ikki ming uch yuz to‘qson bir so‘m to‘qson tiyin)

6.2. Pul, qimmatli qog‘ozlar, o‘zga ashayolar yoki mulkiy huquqlar yoxud pul bahosiga ega bo‘lgan boshqa shaxsga o‘tkaziladigan o‘zga huquqlar Jamiyatning ustav fondiga qo‘shiladigan hissalar bo‘lishi mumkin.

6.3. Jamiyat muassisining buyrug‘iga asosan ustav fondini ko‘paytirishi yoki kamaytirishi mumkin.

6.4. Jamiyatning ustav fondini ko‘paytirishga u to‘liq to‘langanidan keyingina yo‘l qo‘yiladi. Jamiyat ustav fondining ko‘paytirilishi Jamiyatning mol-mulki hisobiga va (yoki) Jamiyat muassisining qo‘srimcha hissalar hisobiga, agar bu Jamiyatning ustavi bilan taqiqlangan bo‘lmasa, Jamiyatga qabul qilinadigan

uchinchi shaxslar hissalari hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini Jamiyatning mol-mulki hisobiga ko‘paytirish to‘g‘risidagi qaror bunday qaror qabul qilingan yildan oldingi yil uchun Jamiyatning buxgalteriya hisoboti ma’lumotlari asosidagina qabul qilinishi mumkin.

6.5. Jamiyatning ustav fondini kamaytirish yagona ishtirokchilarga tegishli bo‘lgan ulushlarning nominal qiymatini kamaytirish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini kamaytirish va uning yangi miqdori to‘g‘risida qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab o‘ttiz kun mobaynida Jamiyatning unga ma’lum bo‘lgan barcha kreditorlarini xabardor qilishi, shuningdek qabul qilingan qaror to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida ma’lumot e‘lon qilishi shart.

6.6. Ustav fondini o‘zgartirish to‘g‘risidagi qaror uchinchi shaxslar uchun ustav va ta’sis shartnomasiga tegishli o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyingina kuchga kiradi.

VII. JAMIYAT MUASSISINING JAMIYAT USTAV FONDIDAGI ULUSHNING (ULUSHI BIR QISMINING) UChINChI ShAXSLARGA O‘TISHI

7.1. Jamiyat muassisi Jamiyatning ustav fondidagi o‘z ulushini yoki ulushining qismini uchinchi shaxslarga sotishga yoki boshqacha shaklda ularning foydasiga voz kechishga haqli.

7.2. Jamiyat muassisining ulushi to‘liq to‘langan davrgacha bo‘lgan muddatda to‘langan qismi bo‘yichagina begonalashtirilishi mumkin.

7.3. Jamiyat ustav fondidagi ulushdan (ulushning bir qismidan) boshqa shaxsning foydasiga voz kechish, oddiy yozma shaklda amalga oshirilishi kerak.

VIII. JAMIYATNING HUJJATLARINI SAQLASH

8.1. Jamiyat quyidagi hujjatlarni saqlashi shart:

Jamiyatning ta’sis hujjatlari, shuningdek, Jamiyatning ta’sis hujjatlariga kiritilgan hamda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan o‘zgartishlar va qo‘srimchalar;

Jamiyat muassisi yig‘ilishining Jamiyatni tashkil etish va Jamiyatning ustav fondiga qo‘shiladigan pulsiz hissalarning pul bahosini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorini, shuningdek, Jamiyatni tashkil etish bilan bog‘liq boshqa qarorlarini o‘z ichiga olgan bayonnomasi;

Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat;

Jamiyatning o‘z balansida turgan mol-mulkka bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

Jamiyatning filiallari va vakolatxonalarini to‘g‘risidagi nizomlar;

Jamiyat muassisi buyrug‘i, Jamiyat kuzatuv kengashi, Jamiyatning ijro etuvchi organi va Jamiyatning taftish komissiyasi majlislarining bayonnomalari;

auditorlik tashkilotining xulosalarini;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.

8.2. Yuqorida aytib o‘tilgan hujjatlar ijro etuvchi organ joylashgan joyda saqlanadi.

8.3. Amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lmasa, Jamiyat mazkur ustavning 9.1-bandida ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlarni doimiy saqlaydi.

8.4. Jamiyat muassisining talabi bilan unga axborot, shuningdek, ta’sis hujjatlari, unga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalar bilan taqdim qilishi yoki nusxa berishi shart.

IX. HISOB VA HISOBOT

9.1. Jamiyat o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va o‘z mahsuloti hamda xizmatlariga narxlarni bozor konyukturasidan kelib chiqib belgilaydi.

9.2. Jamiyat mustaqil ravishda buxgalteriya hisobini, statistika va moliyaviy hisobotni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

9.3. Jamiyat yagona ishtirokchi bilan kelishilgan holda Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini, shtat jadvalini va mehnatga haq to‘lashni O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilaydi.

9.4. Jamiyat faoliyatiga oid hisobotlarni qonunda belgilangan tartibda davlat organlariga taqdim qiladi.

X. DAROMADNI TAQSIMLASH VA ZIYONLARNI QOPLASH

10.1. Jamiyat barcha soliqlar va majburiy to‘lovlarini to‘laganidan keyin uning hisobida qolgan mablag‘lar Jamiyatning foydasini tashkil etadi.

10.2. Jamiyat ustav fondining 15 % miqdorida zaxira fondi shakllantiradi. Jamiatning zaxira fondi uning zararlarini qoplash va qonunda nazarda tutilgan hollarda Jamiatning ustav fondidagi ulushni (ulushning qismini) sotib olish uchun mo‘ljallangan.

XI. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI

11.1. Jamiatning boshqaruv organlari bo‘lib quyidagilar belgilanadi:
jamiyat muassis - oliy boshqaruv organi;
kuzatuv kengashi;
direktor – Jamiatning ijro etuvchi organi.

XII. JAMIYAT MUASSISI

12.1. Jamiatning oliy boshqaruv organi bo‘lib Jamiat muassisini hisoblanadi.

12.2. Jamiat muassisining vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

a) Jamiat faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash, shuningdek tijorat tashkilotlarining boshqa birlashmalarida ishtirok etish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

b) Jamiat ustav fondining miqdorini o‘zgartirish;

v) ta’sis hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish;

g) Jamiatning ustav fondidagi o‘z ulushini yoxud uning bir qismini qonunchilik hujjatlarida va Jamiatning ustavida nazarda tutilgan tartibda uchinchi shaxslarga sotish yoki o‘zga tarzda ularning foydasiga voz kechish;

d) Jamiat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish;

e) qonunchilik hujjatlariga muvofiq Jamiat tomonidan olingan foydaning tegishli qismini olish.

- j) har yili Jamiyatning biznes-rejasini tasdiqlash, ijroiya organining uning bajarilishi jarayoni to‘g‘risidagi hisobotini tinglash;
- z) Jamiyatning ijro etuvchi organlarini tuzish va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- i) Jamiyatning kuzatuv kengashi a’zolarini saylaydi va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- k) yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash;
- l) Jamiyat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash (qabul qilish);
- m) auditorlik tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish, auditorlik tashkilotlari hamda ularning xizmatlariga to‘lanadigan haqning eng ko‘p miqdorini aniqlash;
- n) boshqa yuridik shaxslarni, vakolatxonalar va filiallarni tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- o) Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish, tugatuvchini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash.

XIII. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

13.1. Kuzatuv kengashi a’zolari qonunchilik hujjatlariga muvofiq tanlab olinadi va Jamiyat muassisi buyrug‘i asosida uch yil muddatga saylanadi.

Kuzatuv kengashi a’zolari o‘z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko‘zlab harakat qiladi hamda qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Kuzatuv kengashi a’zosi soni uch kishidan iborat bo‘ladi.

Kuzatuv kengashi a’zosi bo‘lgan shaxs davlat ishtirokidagi korxonalarining beshtadan ortiq kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Kuzatuv kengashi majlislari zaruratga qarab, biroq har chorakda kamida bir marta o‘tkaziladi.

Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligi O‘zbekiston Respublikasi “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunning 40-moddasiga asosan o‘tkaziladigan korporativ boshqaruv tizimining joriy etilishini baholash natijalariga ko‘ra baholanadi.

13.2. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolatlari:

Jamiyatning kuzatuv kengashini tuzish va uning faoliyati tartibi, shuningdek Jamiyat kuzatuv kengashi a’zolarining vakolatlarini va Jamiyat kuzatuv kengashi raisining vakolatini tugatish tartibi Jamiyat muassisi buyrug‘i bilan belgilanadi.

Jamiyatning ijro etuvchi organining, uning shu’ba va tobe xo‘jalik Jamiyatlar boshqaruv organlarining a’zolari, Jamiyat tomonidan tashkil etilgan unitar korxonaning rahbari hamda ayni shu shu’ba, tobe xo‘jalik Jamiyatlarida va unitar korxonada mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyat kuzatuv kengashining a’zosi bo‘lishi mumkin emas.

Jamiyat muassisi buyrug‘iga binoan Jamiyat kuzatuv kengashining a’zolariga haq to‘lanishi va (yoki) ularning o‘z majburiyatlarini bajarishlari bilan bog‘liq xarajatlari qoplanishi mumkin.

XIV. JAMIyat ijro etuvchi ORGANI

14.1. Jamiatning ijro etuvchi organi - Jamiatning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi direktor hisoblanadi.

Jamiat ijroiya organi rahbari (direktor) kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida yagona ishtirokchi tomonidan uch yil muddatga saylanadi hamda uning faoliyati natijalari qoniqarsiz deb baholangan taqdirda muddatidan oldin lavozimidan ozod etilishi mumkin.

14.2. Direktor lavozimiga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Direktor bilan tuzilgan mehnat shartnomasini direktorni saylash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilgan muassisini imzolaydi.

14.3. Direktor lavozimidan Jamiat muassisining buyrug‘i bilan lavozimidan ozod qilinishi mumkin.

14.4. Jamiatning direktori:

Jamiat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi va bitimlar tuzadi;

Jamiat nomidan vakillik qilish huquqi uchun ishonchnomalar beradi;

Jamiat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va ularni bekor qiladi, xodimlarga nisbatan rag‘batlantirish choralarini va intizomiy jazolarni qo‘llaydi;

Jamiatning barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;

qonunchilik hujjatlari va Jamiatning ustavi bilan Jamiat muassisini va Jamiatning kuzatuv kengashi vakolatlari jumlasiga kiritilmagan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

14.5. Direktor Jamiat muassisiga hisobot beradi va uning oldida Jamiat faoliyatining amalga oshirilishi hamda unga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarning bajarilishi uchun javobgardir.

14.6. Direktor Jamiat mol-mulkini tasarruf etishi va Jamiat muassisini buyrug‘i bo‘yicha yirik bitimlar tuzishi mumkin.

XV. JAMIyat FAOLIYATI YUZASIDAN NAZORAT

15.1. Jamiatda alohida nazorat qiluvchi organning tuzilishi ko‘zda tutilmagan.

15.2. Jamiatning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan nazorat Jamiat muassisini yoxud mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

XVI. XODIMLAR

16.1. Jamiat ma’muriyati xodimlar bilan jamoa shartnomasini imzolaydi. Ushbu shartnomaning mazmuni, shu jumladan “Xodimlarning ijtimoiy ta’minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi nizom” O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari, mazkur ustav, shuningdek, Jamiat faoliyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

XVII. JAMIyatNING TIJORAT SIRI

17.1. Jamiatning tijorat siri - uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli tijorat qimmatiga ega bo‘lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot bo‘lib, ushbu axborot Jamiat tomonidan uning maxfiyligini muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘radi.

17.2. Tijorat sirining muhofaza qilinishini ta'minlash maqsadida xodim:
ish beruvchi tomonidan o'rnatilgan tijorat siriga rioya etishi;
ish beruvchining rozilgisiz tijorat sirini oshkor etmasligi va undan shaxsiy
maqsadlarda foydalanmasligi;
mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilinganda o'z foydalanishida bo'lган,
tijorat siri aks etgan moddiy jismlarni ish beruvchiga topshirishi yoki uni mazkur
jismlardan ish beruvchining nazorati ostida yo'q qilib yoxud o'chirib tashlashi shart.

XVIII. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

18.1. Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish Fuqarolik kodeksining 49 - 55-moddalarida va "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari Jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 49 - 55-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

18.2. Jamiyatni qayta tashkil etish muassisasi buyrug'i bo'yicha qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish va qayta tuzish shaklida amalga oshirilishi mumkin.

18.3. Jamiyat belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda Jamiyat muassisining buyrug'i bilan tugatilishi mumkin. Jamiyat qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra sudning qaroriga binoan ham tugatilishi mumkin.

18.4. Jamiyatning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritib qo'yilganidan so'ng, Jamiyatni tugatish yakunlangan, Jamiyatning faoliyati esa tugagan hisoblanadi.

XIX. NIZOLARNI HAL QILISH

19.1. Ta'sis shartnomasi va Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklari Jamiyat muassisasi tomonidan amaldagi qonunchilik hujjatlari, ta'sis shartnomasi va Ustavga asosan hal qilinadi.

19.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmanan taqdirda ular sud orqali, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

XX. YAKUNIY QOIDALAR

20.1. Mazkur Ustav Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtidan boshlab kuchga kiradi.

20.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinmagan masalalar, qonunchilik hujjatlarida boshqa hollar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu ustavga muvofiq tartibga solinadi.

XXII. JAMIYAT MUASSISI:

21.1. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi.

Jamiyat direktori v.b.